

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN O'QUVCHILARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Feruza Elamasovna

*Toshkent viloyati Ohangaron shahri 7-alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar
uchun ixtisoslashtirilgan muktab o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi, ko'krak nishoni,
Sog'lom turmush, medali sohibasi*

Sattarova Muxlisa Kuchqar qizi

*Toshkent viloyati Ohangaron shahri 7-alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar
uchun ixtisoslashtirilgan muktab o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullardan dars jarayonida foydalanish, maxsus ta'limda samarali faoliyat uchun tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan, texnologiya, metod, oddiydan-murakkabga

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzlusiz ta'lim tizimi orqali intellektual va ma'naviy-axloqiy barkamol shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan. Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti kadrlar tayyorlash tizimining mukammal bo'lishiga, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Ta’lim jarayonining samaradorligi unda ta’lim oluvchi va pedagoglar faoliyatining qanchalik faol tashkil etilishiga bog’liq. Bu esa o’z navbatida, axborot kommunikatsion, pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida izchil va samarali qo’llash orqali amalga oshiriladi.

Yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kunda har bir o’qituvchining asosiy vazifasidir. Bunday mas’uliyatli vazifani ado etish uchun o’qituvchidan izlanuvchanlik, samimiylilik, oddiylik, yuksak prinsipiallik, do’stona munosabat, izlanuvchanlik, talabchanlik, o’zgalar taqdiri uchun qayg’urish kabi sifatlarni o’ziga singdirib borish talab etiladi.



Pedagog har bir dars uchun reja tuzishda aniq maqsadni ko’zlaydi. Bu esa kutilayotgan natijaga erishish mezoni hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalardan maxsus ta’limda ham foydalanish bugungi kunda talabga va ehtiyojga aylandi. Chunki hozirgi vaqtida o’quvchilar ma’ruza ko’rinishidagi yoki an’anaviy darslardan ko’ra interfaol uslublarni o’z ichiga qamragan, pedagogik texnologiya va texnik vositalar bilan jihozlangan darslarga ko’proq qiziqishadi.

Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan pedagoglar pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir qancha talablarni e’tiborga olishlari zarur:

- o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olib, individual yondashuvni tashkil eta olishi;
- o'quvchilarda natijani oldindan ko'ra olishi;
- darsda usul va vositalarni tizimli qo'llash rejasini tuza olishi;
- ta'lim jarayonini texnik vositalar bilan boyitib borishi;
- ta'limni ruhiy jarayonlarni rivojlantirish bilan birga olib borishi;
- pedagog kasbiy mahoratiga ega bo'lgan holda o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni kashf qila olishi.

O'qituvchining didaktik vositalarni darsda samarali qo'llay olishi uning kasbiy malakasini belgilab beradi. Yetarli darajada didaktik vositalar bilan qurollangan va ulardan samarali, o'z o'rniда mahorat bilan foydalana olgan pedagog har doim malakali, ilg'or ustoz hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda quyidagi shaxs xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

- o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib berilgan topshiriqlar ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi;
- o'zidagi nuqsonlardan uyalmay, fikrlarini erkin bayon etishga o'rghanadilar;
- jamoada ishslash malakasini egallaydilar;
- guruhdagilar yordamini qabul qilish va ularga yordamga shay turishni o'rghanadilar;
- jarayonning oddiydan murakkabga tomon borishiga ko'ra turli topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rghanadilar;
- o'z-o'zini va o'rtoqlarini to'g'ri baholashga odatlanadilar.

Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan



ta'lism

muassasasida ta'lism jarayonini tashkil etishda ‘Tarmoqlash, (Klaster) uslubi, ‘Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim, uslubi, ‘Aqliy hujum, uslubi, ‘Fikrlar uyumi, uslubi, ‘Akvarium, uslubi kabi interfaol uslublardan samarali foydalanish mumkin. Ularni barcha fanlarga joriy etish mumkin, bunda pedagog faoliyat turini to'g'ri tanlay olish, mahorat bilan qo'llashni o'zlashtirishi zarur .

Imkoniyati cheklangam bolalar bilan biroz soddalashtirilgan holda o'tkazish mumkin. Pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun ta'lism jarayonida quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1-tavsiya. Jarayonga mas'uliyat bilan yaxshi tayyorgarlik ko'ring. Ishingizdan kutilayotgan natijaga erishishning ishonchli va samarali yo'li-shu.

2-tavsiya. Har qanday vaziyatda uning ijobiy tomonini topish va asoslashga harakat qiling. Shunda o'quvchilaringizda o'ziga ishonchlari ortadi va ular sizni tinglaydi.

3-tavsiya. Maqsadingiz aniq va ravshan bo'lsin. Natijaga erishish uchun maqbul vositalardan foydalanishga zamin yaratiladi.

4-tavsiya. Jarayonning ko'rgazmaliliga e'tibor bering. Pedagogik texnologiya jarayonida qo'llaniladigan vositalardan biri ko'rgazmalilikdir.

5-tavsiya. Puxta o'yangan reja asosida ish olib boring. Reja mavzuga mos tuziladi, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish yo'llari va usullarini oldindan rejalaشتiring.

6-tavsiya. Adolatli bo'ling. Jarayon davomida o'quvchilardan bildiriladigan fikrlarning eng maqbulini tanlashda va ularga shaxsan murojaatlarni amalga oshirishda neytral holatda turing.

7-tavsiya. Kerakli tayanch savollarni bering va o'quvchilarni faollikka undang.

8-tavsiya. Mavzudan chetga chiqmang. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, ular lirk chekinishlarni talab etadi.Ushbu chekinishlar ham maqsadli sodir etilishiga ehtiyoj tug'iladi, lekin unda ko'zlangan maqsad mavzuga xos bo'lishi lozim.

9-tavsiya. Murosali bo'ling va aniq shartnomalar haqida unutmang.

10-tavsiya. Jarayonni ijobiy tusda va mazmunda yakunlang.

Pedagogik texnologiyalarni barcha fanlarga joriy etish mumkin, bunda pedagog faoliyat turini to'g'ri tanlay olishi, mahorat bilan qo'llashni o'zlashtirishi zarur . Pedagog mashg'ulot yoki darsni, albatta, oddiydan murakkabga, izchillik, ko'rgazmalilik kabi tamoyillarga amal qilgan holda, o'yin shaklida tashkil eta olsa, samaradorlikka erisha oladi. Har qanday uslub yoki usul bolalar yoshi, nuqsoni va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'llanishi zarur.

Bu esa pedagogni o'z ustida tinmay ishlashi, izlanishi va o'qitishning samarali uslublarni tanlab, uni amalda qo'llay bilishini talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov. 'Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T.:Sharq, 1998
2. T.G'afforova. 'Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar,- T .'Tafakkur, , 2011
3. M.Ayupova. 'Logopediya,- O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2007
4. R. Shomahmudova, LMo'minova. 'Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish, , Toshkent 'Turon - Iqbol, 2007
5. U.Y.Fayziyeva, F.U.Qodirova. 'Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilishi, , Toshkent, 2009